



# SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## SIRDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

*2023- yil 1- iyun holatiga ko‘ra  
(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)*

*Ma‘lumotlar O‘zbekiston Respublikasi  
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi  
ma‘lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.


Jumladan, 2023-yil 1-iyun holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 13 745 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 11 560 ta). 2019- yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonining o‘shish sur‘ati 119,1 foizni (jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar 122,4 foiz) tashkil etdi.




## Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar

*fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- iyun holatiga ko‘ra, birlikda.*

Faoliyat ko‘rsatayotgan

Ro‘yxatdan o‘tgan




**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar***yanvar-may oylari holatiga ko‘ra, birlikda***Yillar kesimida soni****Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)****Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida**


Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi




Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash

Sog‘liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Joriy yilning yanvar-may oylarida viloyatda yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 1 072 tani tashkil etdi.


Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: qishloq o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 32,1 foiz, savdo – 38,2 foiz, sanoat – 9,9 foiz, hududlar kesimida eng ko‘p Guliston shahrida 21,4 foiz, Sardoba – 14,8 foiz, Oqoltin – 11,9 foiz va Sirdaryo – 10,6 foiz tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

**Hududlar kesimida**


Guliston sh.	229	6,7 %	Guliston t.	80	7,6 %
Sardoba t.	159	15,9 %	Xovos t.	63	7,4 %
Oqoltin t.	128	13,7 %	Boyovut t.	53	4,5 %
Sirdaryo t.	114	6,9 %	Yangiyer sh.	53	5,6 %
Sayxunobod t.	94	8,5 %	Shirin sh.	12	3,2 %
Mirzaobod t.	87	7,0 %			

2023- yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2023- yil 1-iyun holatiga 13 745 taga yetib, 2019- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 119,1 foizni tashkil etdi.



Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 32,7 foiz, qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 15,1 foiz, sanoat – 11,5 foiz, hududlar kesimida eng ko'p Guliston shahrida 25,0 foiz, Sirdaryo – 11,9 foiz, Mirzaobod – 9,1 foiz va Boyovut – 8,5 foiz tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

## Hududlar kesimida


Guliston sh.	3 436	Sardoba t.	998
Sirdaryo t.	1 641	Yangiyer sh.	944
Mirzaobod t.	1 248	Oqoltin t.	931
Boyovut t.	1 170	Xovos t.	850
Sayxunobod t.	1 100	Shirin sh.	370
Guliston t.	1 057		

2023- yil yanvar-may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat  
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo





Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2023-yilning yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 1 043 tani tashkil etdi.



## Hududlar kesimida

Guliston sh.	218	7,6 %	Guliston t.	78	8,7 %
Sardoba t.	157	18,1 %	Xovos t.	61	9,1 %
Oqoltin t.	127	15,7 %	Boyovut t.	52	5,5 %
Sirdaryo t.	112	8,1 %	Yangiyer sh.	49	5,9 %
Sayxunobod t.	94	10,0 %	Shirin sh.	12	4,0 %
Mirzaobod t.	83	7,6 %			

2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023- yil 1- iyun holatiga 11 626 taga yetib, 2019- yilning mos davriga nisbatan (2 134 ta) o'sish sur'ati 122,5 foizni tashkil etdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 38,7 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 17,7 foiz, sanoat – 13,5 foiz, qurilish – 10,0 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 5,9 foiz, tashish va saqlash – 2,9 foiz, axborot va aloqa – 1,3 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 1,2 foiz, boshqa turlari – 8,8 foiz.

## Hududlar kesimida


Guliston sh.	2 881	Sardoba t.	867
Sirdaryo t.	1 389	Yangiyer sh.	834
Mirzaobod t.	1 092	Oqoltin t.	810
Boyovut t.	942	Xovos t.	673
Sayxunobod t.	937	Shirin sh.	302
Guliston t.	899		

2023- yil yanvar-may holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.


2023- yilning yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 33,0 foiz, savdo – 39,2 foiz hamda sanoat 10,2 foizni tashkil etgan.

## Hududlar kesimida


Guliston sh.	218	7,6 %	Guliston t.	78	8,7 %
Sardoba t.	157	18,1 %	Xovos t.	61	9,1 %
Oqoltin t.	127	15,7 %	Boyovut t.	52	5,5 %
Sirdaryo t.	112	8,1 %	Yangiyer sh.	49	5,9 %
Sayxunobod t.	94	10,1 %	Shirin sh.	12	4,0 %
Mirzaobod t.	83	7,7 %			

2023- yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda

## Yillar kesimida soni



## Yillar kesimida o'sish surati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Hududlar kesimida eng ko'p kichik biznes subyektlari Guliston shahrida (24,7 foiz), Sirdaryo (11,9 foiz), Mirzaobod (9,4 foiz) va Boyovut (8,1 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 54,1 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.

## Hududlar kesimida

Guliston sh.	2 860	Sardoba t.	866
Sirdaryo t.	1 377	Yangiyer sh.	831
Mirzaobod t.	1 084	Oqoltin t.	808
Boyovut t.	937	Xovos t.	669
Sayxunobod t.	933	Shirin sh.	299
Guliston t.	896		




## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

2023- yil 1- iyun holatiga ko‘ra, birlikda

### Hududlar kesimida


Sardoba t.	346
Mirzaobod t.	325
Sayxunobod t.	283
Oqoltin t.	263
Guliston t.	195
Boyovut t.	181
Sirdaryo t.	177
Xovos t.	155
Guliston sh.	89
Yangiyer sh.	40
Shirin sh.	22



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta’minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.


### Baliq ovlash va akvakultura



2023- yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda


**Hududlar kesimida**

Guliston sh.	349
Sirdaryo t.	216
Mirzaobod t.	161
Boyovut t.	144
Sayxunobod t.	140
Yangiyer sh.	139
Xovos t.	105
Guliston t.	105
Sardoba t.	85
Oqoltin t.	78
Shirin sh.	55



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.


Sanoat korxonalari soni jami korxonalar va tashkilotlarning 11,5 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 92,9 foizini ishlab chiqarish sanoati (2019- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,8 foiz), 4,9 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish sur'ati 89,7 foiz), 1,5 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (o'sish sur'ati 68,6 foiz) va 0,7 foizini elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish sur'ati 55,6 foiz) tashkil etgan.



2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Guliston sh.	412
Mirzaobod t.	127
Sirdaryo t.	101
Yangiyer sh.	93
Guliston t.	79
Sayxunobod t.	76
Oqoltin t.	71
Boyovut t.	70
Xovos t.	62
Shirin sh.	37
Sardoba t.	35



O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 56,1 foiz ulushni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 96,9 foizni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 22,0 foiz ulushni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 140,7 foizni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 21,9 foiz ulushni va 116,0 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

256


Fuqarolik  
obyektlarini qurish

254

Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

653


Bino va  
inshootlar qurish



2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Guliston sh.	1 288
Sirdaryo t.	598
Guliston t.	379
Boyovut t.	369
Yangiyer sh.	331
Mirzaobod t.	326
Sayxunobod t.	298
Sardoba t.	287
Oqoltin t.	278
Xovos t.	219
Shirin sh.	125



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Sirdaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,9 foizi yoki 4 492 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 63,1 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2019- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 148,4 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 28,4 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 152,6 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 8,5 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 109,5 foizni tashkil etdi.

380

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

1 279

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


2 839

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2023- yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda

**Hududlar kesimida**

Guliston sh.	181
Sirdaryo t.	79
Boyovut t.	69
Yangiyer sh.	64
Guliston t.	58
Oqoltin t.	50
Sayxunobod t.	46
Mirzaobod t.	44
Sardoba t.	44
Xovos t.	32
Shirin sh.	22



2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 75,1 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgo'klar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023- yil 1-iyun holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 6,0 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 94,0 foiz ulushini tashkil etdi.

41

Yashash bo'yicha xizmatlar



648


Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida


Guliston sh.	77
Yangiyer sh.	18
Sirdaryo t.	17
Boyovut t.	14
Guliston t.	10
Sardoba t.	7
Shirin sh.	6
Sayxunobod t.	5
Mirzaobod t.	4
Oqoltin t.	4
Xovos t.	1



2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 21,5 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2019- yilning mos davriga nisbatan 123,1 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radio eshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 27,0 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2019- yilning mos davriga nisbatan 93,6 foizni tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning 51,5 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 93,3 foizni tashkil etdi.



2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

## Hududlar kesimida

Guliston sh.	91
Sirdaryo t.	30
Yangiyer sh.	20
Sayxunobod t.	10
Sardoba t.	8
Mirzaobod t.	8
Guliston t.	7
Xovos t.	6
Boyovut t.	6
Oqoltin t.	5
Shirin sh.	3



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 139 ta yoki 71,6 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

90,7 foiz korxonalar sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat yo'nalishiga to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2019- yilning mos davriga nisbatan 139,7 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 3,6 foizni tashkil etib, o'sish sur'ati 175,0 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 5,7 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 2,2 martani tashkil etdi;

11

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

7




176

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda


**Hududlar kesimida**

Guliston sh.	67
Sirdaryo t.	48
Mirzaobod t.	46
Yangiyer sh.	44
Xovos t.	42
Sayxunobod t.	29
Boyovut t.	23
Oqoltin t.	16
Guliston t.	13
Sardoba t.	8
Shirin sh.	5



2023- yil 1-iyun holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami Sirdaryo viloyatidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 2,5 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki: quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tashish va saqlash xizmati yo'nalishining 76,5 foizni tashkil etdi; ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishi 20,8 foizni; pochta va kuryerlik yo'nalishi 2,7 foizni tashkil etdi;





**Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy  
shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot**  
2023- yil 1- iyun holatiga ko‘ra, birlikda

**Tadbirkorlik  
subyektlari soni**

**Tadbirkorlik subyektlarining  
jamiga nisbatan ulushi**




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


2023- yil yanvar-may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

**Mas'uliyati cheklangan jamiyati** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


## Hududlar kesimida

Guliston sh.	203	8,9 %	Sayxunobod t.	72	9,4 %
Sardoba t.	152	19,5 %	Xovos t.	54	9,1 %
Oqoltin t.	123	16,9 %	Yangiyer sh.	46	6,3 %
Sirdaryo t.	109	8,9 %	Boyovut t.	42	5,7 %
Guliston t.	73	10,5 %	Shirin sh.	12	4,8 %
Mirzaobod t.	73	7,9 %			

2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 11 626 ta tijorat korxonasi va tashkilotlarining 9 701 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarining sohalar kesimida tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich savdo – 39,4 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 18,5 foiz hamda sanoat – 13,1 foizni tashkil etdi.


## Hududlar kesimida

Guliston sh.	2 285	Yangiyer sh.	732
Sirdaryo t.	1 218	Oqoltin t.	727
Mirzaobod t.	923	Guliston t.	694
Sardoba t.	778	Xovos t.	593
Sayxunobod t.	764	Shirin sh.	249
Boyovut t.	738		

2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



100

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



593

Savdo



21

Axborot va aloqa



147

Sanoat



36

Tashish va saqlash



35

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

141

Qurilish



146

Yashash va ovqatlanish



149

Boshqa turlar

2023- yil 1- iyun holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan bo'lib. Xususiy korxonalarining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayt etilgan Guliston shahri - 468 ta, Boyovut - 157 ta, Guliston -138 ta va Sirdaryo tumanida -123 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan savdo sohasida – 593 ta, sanoat – 147 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 146 ta va qurilish sohasida – 141 ta.


## Hududlar kesimida

Guliston sh.	468	Yangiyer sh.	77
Boyovut t.	157	Oqoltin t.	53
Guliston t.	138	Sardoba t.	48
Sirdaryo t.	123	Xovos t.	47
Sayxunobod t.	116	Shirin sh.	42
Mirzaobod t.	99		

2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Sanoat



Tashish va saqlash



Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra 2019- yilning mos davriga nisbatan 95 taga ko'paygan.

Bu esa quyidagi sohalardagi korxonalar: savdoda – 24 tadan 63 taga (o'sish 39 taga), sanoatda – 68 tadan 88 taga (o'sish 20 taga), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi – 25 tadan 56 taga (o'sish 31 taga) sonining sezilarli oshishi bilan izohlanadi.

## Hududlar kesimida


Guliston sh.	73	Oqoltin t.	13
Guliston t.	38	Sayxunobod t.	11
Mirzaobod t.	28	Shirin sh.	8
Sirdaryo t.	28	Xovos t.	6
Boyovut t.	21	Sardoba t.	1
Yangiyer sh.	17		

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot


2023- yil yanvar-may holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni


Yangi tashkil etilganlarni faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)




### Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat




Qurilish



Savdo



Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.


### Hududlar kesimida

Guliston sh.	6	14,6 %
Yangiyer sh.	4	25,0 %
Mirzaobod t.	3	12,0 %
Sirdaryo t.	3	6,0 %
Sayxunobod t.	2	22,2 %
Oqoltin t.	1	16,7 %
Xovos t.	1	12,5 %
Guliston t.	1	9,1 %

2023- yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



## Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



29

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



28

Savdo



5

Axborot va aloqa



91

Sanoat



4

Tashish va saqlash



1

Sog'liqni saqlash va  
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

11

Qurilish



2

Yashash va ovqatlanish



18

Boshqa turlar

Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 1,5 barabarga oshdi.

Yetakchi o'rinni 40 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu viloyatda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 21,2 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya (ulushi 19,0 foiz), Turkiya (ulushi 17,5 foiz), Qozog'iston (ulushi 10,6 foiz) va Afg'oniston (ulushi 6,3 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

## Hududlar kesimida

Sirdaryo t.	50	Boyovut t.	8
Guliston sh.	41	Xovos t.	8
Mirzaobod t.	25	Sardoba t.	8
Yangiyer sh.	16	Shirin sh.	7
Guliston t.	11	Oqoltin t.	6
Sayxunobod t.	9		

2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 100 tasi qo'shma korxonalar, 89 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



*2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda***xorijiy korxonalar****qo'shma korxonalar****17****Sirdaryo t.****33****22****Guliston sh.****19****11****Mirzaobod t.****14****11****Yangiyer sh.****5****8****Guliston t.****3****5****Boyovut t.****3****5****Sayxunobod t.****4****3****Oqoltin t.****3****1****Sardoba t.****7****6****Xovos t.****2****1****Shirin sh.****5**

2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda

## xorijiy korxonalar

12

17



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

8

3



Qurilish

4



Tashish va saqlash

1



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish

8

10



Boshqa turlar

## qo'shma korxonalar

43

48



Sanoat

15

13



Savdo

1

1



Yashash va ovqatlanish

2

3



Axborot va aloqa

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2023- yil 1- iyun holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



## **Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri**

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Sirdaryo viloyati statistika  
boshqarmasi Statistik registrlarni  
yuritish boʻlimi  
Tel.: 67 236 70 00